XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-mart VI-62-47-11-151-K/24 Oltiariq tumani

O‘zbekiston Respublikasining “ Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, Oltiariq tumanidagihiyobon, istirohat bog'i, shaharcha, qabristonlarga nom berish va davlat reyestriga kiritish, Shalola MFY nomini Bo'rbonliq MFY nomiga o'zgartirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori, viloyat hokimining 2020-yil 14-noyabrdagi 304-qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanmoqda, ya’ni tumandagi mavjud ko'chalar Kadastr agentligining Oltiariq tuman bo‘limi bilan tahliliy o‘rganilib, ko'chalar nomini milliy qadriyarlarimiz va milliy mafkuramiz talablari asosida qayta nomlash, jumladan Mahalla fuqarolar yig'inining qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan geografik ob’yektlarni nomlash to‘g‘risida takliflar bildirildi. Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295- sonli qarori hamda Oltiariq tuman hokimi maslahatchisi M.Axmedovning 194-sonli xati va ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. 1.O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295- sonli qaroriga asosan Oltiariq tumanidagi ko'chalarga nom berilishi borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 22-yanvar kungi o'tkazilgan yig'ilish bayoniga asosan tuman hududidagi 11 ta geografik obyekt

(*shaxarcha, istirohat bog'i, xiyobon, mahalla, qabriston*) nomlari 1-ilovaga asosan o'zgartirilib, Davlat reyestriga kiritilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi (U.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi

TURDALIYEV
SHAMSIDDIN
ASKARALIYEVICH

Xalq deputatlari Oltiariq tumani
Kengashining
2024-yil 26-martdagi
VI-62-47-11-151-K/24 -son qaroriga
1-ilova

T/r	Geografik ob'ektning turi	Joylashgan o'rni	Geografik ob'ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1	**2**	**3**	**4**	**5**
1	Istirohat bog‘	Bug‘doychi mfy	Nomsiz	Markaziy
2	Hiyobon	Bozorboshi mfy	Nomsiz	Yashilmakon
3	Mahalla fuqarolar yig‘ini	Bo‘rbonliq qishlog‘i	Shalola	Bo‘rbonliq

№	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy ilmiy asosi
1	“Qahramon” qabristoni	Oltiariq tumani QahramonMFY, Oqbo‘yra ko‘chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:04:01:0017)***	Qahramon qabristoni Oltiariq tumani Oqbo‘yra qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, 2008-yili tuman hokimining tegishli qaroriga asosan yer maydoni ajratilib, shu yildan boshlab o‘z faoliyatini boshlagan. Qahramon nomini berishdan sabab qabriston Qahramon mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashganligi va asosan shu hududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
2	“Rusiyzabonlar” qabristoni	Oltiariq tumani Sharq MFY, Polosonobod ko‘chasi ***(kadastr raqami : 15:0 7:06:02:01:0080)***	Rusiyzabonlar qabristoni Oltiariq tumani Qapchug‘ay qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, 1969 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. 1906 yilda Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi qurilganidan so‘ng Rossiya va boshqa davlatlardan rus, tatar, koreys millatiga mansub ishchilar ishlash uchun zavodga olib kelingan. Ular ishlari uchun sharoitlar yaratilib, doimiy yashashga uylar qurib berilgan. Vafot etganlarni shu qabristonga dafn qilishgan.
3	“Yuqorimahalla” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko‘chasi ***(kadastr raqami : 15:0 7:04:03:04:0074)***	Yuqori mahalla qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, o‘z faoliyatini 1999-yilda boshlagan. Qabriston tashkil etish bo‘yicha tuman hokimining tegishgli qarori qabul qilingan. Yuqori mahalla qabristoniga bunday nom berilishiga sabab asosan qishloqning yuqorida qismida yashovchi fuqarolar dafn etilganligi munosabati bilan “Yuqori mahalla” nomi berilgan. Qabriston o‘z faoliyatini yurgazib kelmoqda.
4	“Qo‘rg‘oncha” qabristoni	Oltiariq tumani Qo‘rg‘oncha MFY, Adolat yo‘li ko‘chasi ***(kadastr raqami :***	Qo‘rg‘oncha qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, 1947-yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Qo‘rg‘oncha nomini berishdan sabab qabriston Qo‘rg‘oncha mahalla

		15:07:04:03:05:0052)	fuqarolar yig‘ini hududida joylashganligi va asosan shu hududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
5	“Abduholiqota” qabristoni	Oltiariq tumani Navbaxor MFY, ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:05:0017)***	Abduholiqota qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo‘rg‘on qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, 1962 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Abduholiqota deb nom qo‘yilishiga birinchi bo‘lib qabristonga shu kishi dafn etilganligi, Abduholiqota qishloq uchun juda ko‘p ishlar qilganligi, qishloqni obodonlashtirish ishlariga o‘z xissasini qo‘shganligi sabab bo‘lgan.
6	“Qoziyon” qabristoni	Oltiariq tumani Shalola MFY, Y.Xidirov ko‘chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:01:0078)***	Qoziyon qabristoni Oltiariq tumani Bo‘rbonliq qishlog‘ida joylashgan. Qabriston 1970-1975 yillarda faoliyat boshlagan. Qoziyon deb atalishiga sabab, qozilik qiladigan odamlar ko‘p bo‘lgan. “Yon”-so‘zi tojikchada “lar” degan ma’nosini anglatgani uchun “Qozilar” deb atalgan bo‘lishi mumkin. Hozirda qabriston faoliyatini yurgazib kelmoqda.
7	“Xoja Abdulloxal-Ansoriy” qabristoni	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Ansoriy ko‘chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:02:03:0001)***	Xoja Abdulloxal-Ansoriy Hirotdagi ba’zi ulamllar bilan kelisha olmay, Hirotni tark etib, Farg‘ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelib, bir necha vaqt yashagan emish. Uqaysi qishloqda bo‘lsa, uning qadami tekkan yer ziyoratgohga aylantirilgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat uluns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo‘lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo‘lgan. Uning to‘liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansu rMuhammadal-Ansoriyal-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko‘handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Hozirda bu nom bilan ataluvchi qabriston o‘z faoliyati tugatilgan.